

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Abbosova	
Ma'furaviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy g'oyaning ro'li	98
Б.А.Абилова	
Суфийские ордена и их роль в историко-политических процессах средневековья	102
X.Q.Abdumutalov	
Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantrishda milliy g'oyaning o'rni.....	107
M.M.Gulamova Xoja	
Muhammad Porsoning irfoniy qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti va ontologik mohiyati ..	110
R.Sh.Alisher	
Mirbobo Naqshbandiyni inson kamoloti qalbni sayqallash, unga ma'naviy ozuqa berish haqidagi mulohazalari	115
S.S.Hamroyev, D.Sh.Shuxratova	
Yangi O'zbekistonda oila institutini isloh qilishning ijtimoiy-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi	119
F.S.Qosimov	
Falsafa nigohida inson kapitalining shakllanishi va taraqqiyotdagi roli.....	124
B.M.Madaminov	
Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari	129
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbikorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy roli	133
M.O.Oripova	
Jamiyatda inson begonalashuvi fenomenining mohiyati va falsafiy mazmuni	137
Д.Р.Вахабова	
Возникновение философских взглядов в персидско-таджикской литературе (Абу Абдулла Рудаки)	142
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyat: tushuncha va falsafiy tahlili.....	147

SIYOSAT

A.A.Ahrorqulov, A.To'xtasinov	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillari	152
G.O.Sa'diyeva	
Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalar	156
R.A.To'ychiyeva	
Yangi davrda Hindiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos ustuvor va farqli jihatlar	163
D.Mamadjonova	
Prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish: qonunchilik asoslari va amaliyot	172
X.Qodirov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni.....	176
P.I.Ovulov	
Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi	180

TARIX

B.B.Iminov	
O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining vujudga kelish tarixi	185
A.U.Hamroyev	
Amir Haydar – ijtimoiy adolat tarafdori bo'lgan hukmdor.....	190
A.U.Hamroyev	
Gulshanul muluk asarida mang'itlar boshqaruvi davrida jamiyat iqtisodiy hayotining yoritilishi	194
M.M.Azimova	
Farg'ona vodiysida qishloq-vrachlik punktlari faoliyatidagi o'zgarishlar tahlili.....	198



UO'K: 94(575.1)"17/18"+330.9(575)+82-94

GULSHANUL MULUK ASARIDA MANG'ITLAR BOSHQARUVI DAVRIDA JAMIYAT IQTISODIY HAYOTINING YORITILISHI**ОТРАЖЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МАНГЫТОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ГУЛШАНУЛ МУЛУК».****THE REFLECTION OF SOCIO-ECONOMIC LIFE DURING THE MANGHIT DYNASTY'S RULE IN THE WORK "GULSHANUL MULUK"****Hamroyev Asliddin Umed o'g'li** 

Buxoro davlat universiteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada har bir davlatda xalqning boyligi, uning qo'shin qudrati bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Doimiy va tinimsiz harbiy yurishlarni amalga oshirish uchun iqtisodiy dastak bo'lishi lozim. Bu barchaga ma'lum qoida. Shu nuqtai nazardan qaralsa, Muhammad Ya'qub Buxoriyning asarida mang'it hukmdorlarining harbiy yurishlari, yurtni birlashtirish va markazlashgan davlat qurish yo'lidagi xizmatlari bayon qilinganda, mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari ham ko'zga tashlanadi. Hozirgi kunda bu madrasa prezidentimizning tashabbusi va ko'rsatmasiga binoan qayta bunyod qilinib, yana ziyoratchilar ziyorat qiladigan maskanga aylantirildi.

Amir Shohmurodning jamiyat rivoji yo'lida amalga oshirgan ishlarida voqif bo'lamiz. Demak, masjidni madrasalarni obod qilish, ularda faoliyat ko'rsatayotgan mudarris va talabalarning oylik maosh va nafaqalarini doimiy berib borishga erishish maqsadida o'sha davrning o'ziga xos tizimi bo'lgan vaqf ishlarini yaxshi yo'lga qo'ygani tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье подчёркивается, что в каждом государстве богатство народа определяет могущество его войска. Для осуществления постоянных и непрерывных военных походов необходима экономическая основа. Это общеизвестное правило. С этой точки зрения, когда в произведении Мухаммада Якуба Бухорийского описываются военные походы правителей из династии мангытов, их усилия по объединению страны и созданию централизованного государства, также обращается внимание на экономические возможности государства. В наши дни эта медресе, по инициативе и указанию нашего Президента, была восстановлена и вновь стала местом паломничества. Мы узнаём о делах, осуществлённых Амиром Шохмуродом на пути развития общества. Таким образом, анализируется, как он наладил работу вакуфов - особой системы того времени, с целью обеспечения регулярной выплаты заработной платы и пенсий мударрисам (преподавателям) и студентам, работающим и обучающимся в мечетях и медресе.

Abstract

This article highlights that in every state, the wealth of the people determines the strength of its army. In order to conduct continuous and relentless military campaigns, economic support is essential. This is a universally acknowledged principle. From this perspective, when describing the military campaigns of the Manghit rulers in Muhammad Yaqub Bukhariy's work, their efforts to unite the country and build a centralized state are accompanied by references to the nation's economic capabilities. Today, this madrasa has been reconstructed and transformed into a pilgrimage site once again, following the initiative and directive of our President. We learn about the efforts made by Amir Shohmurod for the development of society. Specifically, the article analyzes how he successfully organized the system of waqf-a unique institution of that time-in order to ensure the regular payment of salaries and stipends to teachers (mudarris) and students working and studying in mosques and madrasas, as part of his broader plan to restore and maintain religious and educational institutions.

Kalit so'zlar: Mang'itlar boshqaruvi, Amir Shohmurod, jamiyat, iqtisodiy ta'lim, raqamli texnologiyalar, ko'nikmalar, gulshanul muluk, kompetentsiya, o'qitish modeli, tamoyillari, baholash mezonlari.

Ключевые слова: Менеджмент Мангыллар, Амир Шохмурод, общество, экономическое образование, цифровые технологии, навыки, Гулшанул Мулук, компетентность, модель обучения, принципы, критерии оценки.

Key words: Mangitlar management, Amir Shohmurod, society, economic education, digital technologies, skills, Gulshanul Muluk, competence, teaching model, principles, evaluation criteria.

KIRISH

Ma'lumki, "Gulshanul muluk" asari mang'it hukmdorlarining biirinchilaridan bo'lgan Muhammad Doniyolbiy Otaliqning o'g'li Muhammad Ya'qub Buxoriy qalamiga mansub bo'lib, unda

TARIX

Muhammad payg'ambar davridan o'zigacha bo'lgan hukumatlar, ya'ni xalifalik, xonlik va amirliklar, siyosiy hokimiyatni qo'lida saqlagan shaxslar va sulolalar tarixi qisqacha, tarixiy tadrijiylikka qat'iy rioya qilgan holda bayon qilingan.

Mazkur asarning o'ziga xosligi shundaki, muallif Buxoroda hukmronlik so'nggi sulola vakili bo'lgani hamda o'sha davr siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy ma'rifiy hayotining aksar qismidan shaxsan o'zi xabardor bo'lgan va o'z ko'zi bilan ko'rgan. Shuning uchun unda bayon qilingan tarixiy voqealar o'zining ishonchli ekanligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asar asosan, har bir podshoh, xon yoki amirning harbiy yurishlari va hokimiyatni saqlash uchun qilgan sa'y-harakatlarini bayon qilgan bo'lib, bu voqealar asosan, siyosiy xarakterga ega. Shunday bo'lsa-da, mazkur voqealar orqali biz o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'ishiy hayotga baho berishimiz mumkin bo'ladi. Shuningdek, har bir hukmdorning amalga oshirgan bunyodkorlik ishlaridan xabardor bo'lamiz.

Avvalo, har bir davlatda xalqning boyligi, uning qo'shini qudratini belgilab beradi. Doimiy va tinimsiz harbiy yurishlarni amalga oshirish uchun iqtisodiy dastak bo'lishi lozim. Bu barchaga ma'lum qoida. Shu nuqtai nazardan qaralsa, Muhammad Ya'qub Buxoriyning asarida mang'it hukmdorlarining harbiy yurishlari, yurti birlashtirish va markazlashgan davlat qurish yo'lidagi xizmatlari bayon qilinganda, mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari ham ko'zga tashlanadi.

Masalan, mang'itlar sulolasidan birinchi bor taxtga o'tirgan shaxs Muhammad Rahim Bahodirxon hisoblanadi. Uning o'g'il avlodi qolmagani uchun taxtga uning qizidan tug'ilgan nevarasi Fozil To'rani taxtga chiqaradilar. Biroq bundan norozi bo'lgan guruhlar uning ukasi, o'sha paytda otaliq lavozimida bo'lgan Muhammad Doniyolbiy taxtga chiqarishadi va keyingi Buxoroning barcha mang'it hukmdorlari uning avlodidan bo'ladi.

Asar muallifi Muhammad Rahimxonni, ya'ni amakasini juda ulug'laydi va davlat va xalq oldida qilgan xizmatlariga yuqori baho beradi. Jumladan, shunday yozadi: "To'qson ikki bavl o'zbekni birlashtirib, o'zining farmoni ostiga kiritdi. Biron kishining "ha" yoki "yo'q" deyishiga majoli qolmadi. 1172 (1759) yilda vafot etdi. Uning tarixi to'g'risida quyidagi bir misra' bor:

To'tiyi ruh az qafasi tan parid.

Tarjimasi:

(Ruh to'tisi tan qafasidan uchdi).

Abulfayzxon qatl qilingandan vafotiga qadar bo'lgan uning hukmdorlik davri o'n bir yildir".

Uning Markaziy Osiyo bo'ylab tarqoq holda yashayotgan o'zbeklarning 92 ta urug'ini birlashtirgani shubhasiz, uning hukmdorlik, davlatni idora qilishdagi qobiliyatini va har bir urug'ning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy manfaatlarini davlat darajasida uyg'unlashtirganini asoslaydi. Yana asarda Muhammad Rahimxonning bu salohiyatiga muallif shunday baho beradi: "Uning ulug'ligi va mumtozligi shunda ediki, u mang'it sultonlari orasida Hisor va Shahrisabzni davlatining quvvati bilan fath qildi. Uning vafotidan keyin bu davlat hech kimga muyassar bo'lmadi. Uning davlatni idora qilishdagi roh-ravishini ham hech kim qilolmadi".

Muhammad Ya'qub Buxoriy amakisidan keyin taxtga o'tirgan va mang'itlar sulolasining haqiqiy asoschisi bo'lgan otasi Muhammad Doniyolbiy Otaliq to'g'risida yozganida ham o'z usluiga binoan uning davlatni markazlashgan davlat qilish yo'lidagi urinishlari, buning uchun qilgan harbiy yurishlari, zafar qozongani va mag'lubiyatlarini yozadi. Bu jarayonlarning umumiy xulosalab, otasi faoliyatiga shunday baho beradi: "Hazrat valine'mat Doniyolbiy davrlarida avvalgi xonlar davridan qolgan har turli bid'at va zulmlar yo'qoldi".

Bizga ma'lumki, Doniyolbiy mamlakatda ilm-fan rivoji uchun ham muayyan ishlarni amalga oshirgan. Masalan, uning Bahouddin Naqshband ziyoratgohining kunbotar tomonida katta bir madrasa qurdirgan va keyinchalik uning o'zi shu madrasaga ko'milgan. Hozirgi kunda bu madrasa prezidentimizning tashabbusi va ko'rsatmasiga binoan qayta bunyod qilinib, yana ziyoratchilar ziyorat qiladigan maskanga aylantirildi.

Asarda bayon qilingan Muhammad Doniyolbiyning harbiy yurishlari va qilgan janglari to'g'risidagi voqealar zahirida biz Muhammad Doniyolbiyning jamiyat iqtisodiy qudratiga tayanib amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari haqidagi ba'zi ma'lumotlarni uchratamiz. Masalan, uning qal'alar ham qurdirganini yozadi: "Bir oz muddatdan so'ng Mirmiron degan mavzeda bir qal'a qurdirdilar va unga Bo'tabiyni Kosondan ko'chirib keltirib, hokim qilib tayinladilar".

Xuddi shunday mazkur asarda Doniyolbiydan keyin taxtga o'tirgan uning katta o'g'li Amir Shohumrodning ham davlatni rivojlantirish, adolatni o'rnatish va tinchlikni saqlash maqsadida qilgan ishlari, asosan, harbiy yurishlari Xurosonni ham davlati tarkibiga kiritishi voqealari bayon qilingan.

Muallif asarida akasi Amir Shohmurod tarixini bayon qilganida asarning ham akasi hukmdorlik qilayotgan davrda yozganligi ma'lum bo'ladi: "Hozirda Amiri Ma'sumi jannatmakoniy nomi bilan mashhur Shohmurodbiy ham valine'matimning (ya'ni otamning) eng to'g'ri yo'ldagi o'g'illari edi. Uning xatti-harakatlari sababidan Movarounnahrda islom kuchaydi, madrasalar va masjidlarining qadimgi vaqflari tiklandi".

Yuqoridagi ma'lumot orqali Amir Shohmurodning jamiyat rivoji yo'lida amalga oshirgan ishlarida voqif bo'lamiz. Demak, masjidu madrasalarni obod qilish, ularda faoliyat ko'rsatayotgan mudarris va talabalarning oylik maosh va nafaqalarini doimiy berib borishga erishish maqsadida o'sha davrning o'ziga xos tizimi bo'lgan vaqf ishlarini yaxshi yo'lga qo'ygan. Bu esa o'z navbatida ziyoli qatlam bo'lgan o'qituvchi, olimlarning jamiyatdagi nufuzini tiklash bilan birga ularning iqtisodiy imkoniyatlarini yaxshilagan. Bu esa ayni paytda yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlarning teran tarixiy ildizlari mavjudligini ko'rsatib turadi.

Bulardan tashqari asarda Amir Shohmurodning jamiyatda halollik va adolatni tiklash yo'lidagi shaxsiy namunasini ham bir qancha misollarda eslab o'tiladi: "Shu voqeadan keyin 1215 (1800) yilda Amiri Ma'sum foni dunyo bilan xayrlashdi. Uning podshohligi o'n olti yil bo'ldi. Yoshi oltmish birda edi. Amiri Ma'sum shunday podshoh ediki, umr bo'yi faqirona kiyindi. Ustidagi to'ni rangli kirbos (bo'z) matosidan, boshidagi sallasi olti o'ram oq bo'zdan, kovushi qirquin teridan, mas'hisi esa eski qattiq teridan tikilgan edi. Ustiga kiyadigan po'stinining narxi ikki tanga, barcha kiyim kechagining bahosi yetti tanga ham chiqmas edi. Yegani arpa noni, moshova va atala edi. Haftada bir marta jizya puli hisobidan chorak (tax. 250 gr.) miqdorida go'sht olib, ahli ayoliga nafaqa qilar edi. U shunday odam ediki, aodshohlik to'jini kiymas, taxtga o'tirishdan saqlanar edi. Xonlik ismini zimmasidan soqit qilib, amirlikka qanoat qildi. U yana shunday odam ediki, amir bo'lgan davrda akobirlar, umarolar va raiyatning to'y va ma'rakalariga hargiz bormas edi. Hech kimning hadya yoki peshkashlarini ham qabul qilishga qo'ymadi. Mang'it sultonlari orasida birinchilardan bo'lib, eskidan qolgan zolimlarning tomirini uzgan ham u edi va shariatda bo'lmagan turli bid'atlarni buzgan ham u edi".

Bulardan tashqari Amir Shohmurodning o'tkazgan pul islohoti, harbiy va saroy tartibotlariga o'zgartirish kiritganlari to'g'risida ham boshqa manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Uning o'n olti yillik hukmdorlik vaqtida jamiyatning iqtisodiy hayoti ancha yaxshilandi, davlatning rasmiy ul birligining mavqei oshdi.

Amir Shohmuroddan keyin uning o'g'li Amir Haydar taxtga o'tirdi. U otasi kabi davlat va jamiyatni adolatli boshqarishga harakat qildi. Biroq otasidan keyin davlatda turli fitnalar, muxoliflar bosh ko'tardi. Agar biz "Gulshanul muluk" asaridagi mang'it hukmdorlari hayoti yoritilgan mavzularga e'tibor qaratsak, bular ichida Amir Haydar hukmdorlik qilgan davr eng tahlakali va tinimsiz davlatga qarshi harakatlar avj olgan davr ekanligini ko'ramiz.

Amir Haydar o'zining 27 yillik hukmdorlik davrini to'xtovsiz anshu jadallar va muammolarni bartaraf etish bilan o'tkazdi. U faqatgina harbiy yurishlar bilan band bo'lib qolmadi, balki xalq va davlatni rivojiga qo'lidan kelgancha qildi. Buni biz asardagi quyidagi e'tirofda ko'ramiz: "Uning tavalludi 1194 (1780) yilda taxtga o'tirishi esa yigirma ikki yoshdalgida, ya'ni 1215-yilda bo'lgan edi. U yigirma yetti yil podshohlik qildi. O'z fikriga ega, raiyatparvar, dono, olim, saxiy, taqvodor va Kalomullohni to'liq yodlagan hofiz edi. Podshohlik bilan mashg'ul bo'laturib, to'rt yuz mulloga dars berardi. Har oy minglab g'arib va miskinlarga nafaqa berar edi. Yana musofirlarga ham nafaqa ta'yinlar edi. Pirlarga qattiq ehtirom ko'rsatar edi. G'allayu bug'doy ko'p berar edi. Ishroq va tahajjud namozlarini hech vaqt tark qilgan emas. Lekin o'z yaqinlariga mehribonlikni kamroq, begonalarga ko'proq qilar edi".

XULOSA

Amir Haydarning har oyda minglab faqirlarga va musofirlar, ya'ni boshqa yurtda ahvoli og'ir bo'lganidan Buxoroga ko'chib kelgan mehnat migrantlariga nafaqa tayinlashi, ularni ijtimoiy himoyaga olishi ayni paytda davlatning iqtisodiy va moliyaviy qudrati bu kabi ishlarni amalga oshirishga yetganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Muhammad Ya'qub Buxoriyning "Gulshanul muluk" asari o'tmishimizning ming yildan ortiqroq davrini qisqacha yoritgan asar bo'lib, undan ko'pgina yangi ma'lumotlarni olishimiz, ayniqsa mang'itlar sulolasining taxt tepasiga kelishi va davlatni idora qilishi to'g'risidagi

TARIX

qimmatli ma'lumotlarni topishimiz mumkin. Bu bilan o'tmish tariximizga xolis baho berish imkonimiz oshadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гулшанул мулук. Абу Райхон Беруний номидаги Тошкент Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, № AP-1507-3. 254-бет.
2. Hamroyev, A. U. (2024). The Significance of the Work History of Khumuli" in Documenting the Mangit Period's History. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 5(7), 293-297.
3. Hamroyev, A. (2024). AMIR HAYDAR-THE LUMINARY OF KNOWLEDGE AND SCIENCE (BASED ON THE WORK "MAKTUBOTI AMIR HAYDAR"). *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 3(13), 72-75.
4. Hamroyev, A. (2024). THE ISSUE OF JUSTICE IN THE WORK "MAKTUBOTI AMIR HAYDAR". *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 3(7), 155-157.
5. Mirza Abd-al-Azim Sami, *Tarix-i salatin-i mangitiya*, Moskva., 1962
6. Traktat Axmada Danisha, *Istoriya Mangitskoy dinastii*, per. i predisl. I. A. Nadjafovoy, Dushanbe, 1967
7. *Istoriya Kazaxstana v persidskix istochnikax*. - T. 2. - Almati: Dayk-press, 2005. - S. 282.
8. Alexander Burnes. *Travels into Bokhara being the account of a journey from India to Cabool, Tartary and Persia*. - Vol. II. - New Delhi, Madras, Asian educational services, 1992. - P. 358.